



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 262 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil mayda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	14
Umida Kakhramonova Gayratovna, Tillayev Khurshidjon Sulaymon oglu	
Current state and development prospects of tourism: comparative analysis and Uzbekistan's experience.....	20
Risolatbonu Shakhzodova, Laziza Khalilova, Nabijonov Biloliddin, Aziza Usmanova	
Инновационные подходы к повышению эффективности корпоративного управления.....	26
Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, Уринов Бабур Насиллоевич	
Startup проекты и их реализация	30
Ёдгорова Мухайе Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
Methodology of Teaching English: Traditional and Modern Approaches	34
Ravshanova Ziyoda Qahramon Qizi, Xoliqova Dilafruz Shuhratovna	
Государственный кредит и государственный долг.....	37
Срождиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Сравнительный анализ реформ государственных финансов в Китае и Грузии: уроки для Узбекистана	42
Срождиддинова Зарина Хайриддиновна, Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	
Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni takomillashtirish	49
Shakarov Shahzod Sobir o'g'li, Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Esanov Oybek Madatovich	
Sustainable consumption and production: economic challenges and solutions.....	55
Abdullayev Abdug'ofur, Abdubaxromov Abduazim, Eshniyozov Ozodbek, Azizbek Abdullayev	
Traffic congestion in Uzbekistan: causes and strategic solutions	60
Abdulloh Qodirov, Imron Egamberdiyev, Isomiddin Ravshanov, Munisa Bekmirzayeva	
The relationship between corruption and economic growth.....	64
Jurayev Jo'rabek, Abdullayeva Aziza, Mamatova Sarvinoz, Maha Ibrahim	
Crisis management in the tourism industry	74
Ikromova Munisa, Bahodirova Mohigul, Xalimova Dilbar, Abdullajonova Muslimabonu	
Impact of the touristic indicators on the poverty rate.....	80
Abdumanova Maftuna, Azizova Ruhshona, Shavkatova Mubiyabonu, Durdona Bahodirova	
Bringing sustainability: the role of the green economy in enhancing resource efficiency	91
Salokhiddinova Farangiz, Mardonov MuhammadYusuf, Shovkiyeva Munisa, Ahmadova Xurshida	
The relationship between innovation and environmental emissions.....	98
Mamadiyeva Ruxshona, Nurullayev Asliddin, Abduraimov Sardor Anvar o'g'li, Aysayeva E'zoza	
Green finance unlocked: innovations, challenges in Uzbekistan's perspectives.....	107
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna, Jamolova Madina Talgatovna, Lola Qidiralieva Ulug'bekovna	
Turning the tide: how Uzbekistan can tackle its water crisis	115
Rixsiboyev Mirhaydar, Orazov Kamron, Baratov Shakhriyor, Bahromjon Urmanov	
Drivers and losses of economic development of Tashkent: a desk study.....	125
Zaribbaeva Komila Ulugbek qizi, Durdona Davletova	
The digital economy in Uzbekistan: challenges and opportunities.....	133
Ro'zmatov Asror, Bo'riyev Javohir, Safarov Habibullo, Mubina Toirova	
Analysis of water consumption in Uzbekistan	139
Rayimjonova Gulsora, Sarvinoz Murodova, Yahyoyeva Nurhayo, Durdona Zaynutdinova	



Global leadership and cross-cultural management: an empirical analysis of intercultural communication competence (icc) in uzbekistan	144
Dr. Eka Surchman, ST, MT, Annisa ciptagustia, SE, M.SI, Abdurakhmanova Iroda Gulmurod qizi	
iqtisodiy masalalarni matritsa nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	154
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Raqamli to'lov tizimlarining naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni	167
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
Рост зеленой экономики во всем мире	172
Баймурадова Зилола Алишеровна, Бобуржон Бахриддинович Избосаров	
Raqamli iqtisodiyotda soliq boshqaruvining transformatsiyasi: soliq tizimining avtomatlashtirilishi samarasi	181
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Problems and prospects of developing small business in uzbekistan under the conditions of a green economy	187
Baymuradova Zilola Alisherovna, Boburjon Bahriddinovich Izbosarov	
Turizm va mehmondo'stlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri	197
Anvarova Muhsinaxon Otabek qizi	
Zamonaviy mehnat bozorida axborot asimmetriyasi va uning oqibatlarlari	203
Tojialiye Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda xususiy tadbirkorlikni o'rni	206
Ergasheva Dilnoza Anvar qizi, Absamatov Asqar Ergashovich	
Ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirishning amaliy yo'nalishlari	211
Almuratova Nurlio'Imasoy Naym qizi	
Xususiy sektorni moliyalashtirishning ichki va tashqi mexanizmlari va boshqaruv tizimlarini takomillashtirishning ayrim istiqbolli tomonlari	214
Ametov Quvandik Mamatjanovich, Karrieva Dildora Ruslan qizi	
Yashil energetika - barqaror iqtisodiyotning kaliti sifatida	219
Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li, Umirov Islombek Furkatovich	
Moliyaviy regulatsiya va fiskal siyosat orqali xufyona iqtisodiyot ulushini qisqartirishning nazariy asoslari	225
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
The importance of foreign investments in the economic development of the country	229
Rahmonov Samandar, K.J. Matkarimov	
Nostandart bandlik tushunchasi va uning mintaqani rivojlantirishdagi ahamiyati	235
Abdikarimova Zuxra Baxramovna, Saida Eshchanova	
O'zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish	240
Poyonov Otabek Abdiqaxxor o'g'li, Almardonov Muxamadi Ibragimovich, Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich	
Xorazm viloyatida yashil iqtisodiyotni yo'lga qo'yishdagi muammolar va ularga innovatsion yondashuv	244
Ravshanbekova Madina Davlatboy qizi	
O'zbekiston xalqaro bozorga integratsiyalashuv jarayonida qishloq xo'jaligi ayrim mahsulotlarini yetishtirishning o'ziga xos jihatlari	247
O'razboyeva Farangiz Quadrat qizi, Ametov Quvandik Mamatjanovich	
The role of profitability in evaluating enterprise performance	251
Kholiqulov A.N., Khlomurodova S.A.	



Yaponiyada demografik muammo va uning iqtisodiyotga ta'siri.....	256
Mamatov Sardor Ilyasovich, Shoydulova Maftuna Zafar qizi	



YAPONIYADA DEMOGRAFIK MUAMMO VA UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Mamatov Sardor Ilyasovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Raqamli iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi
E-mail: xon.9229@gmail.com

Shoydulova Maftuna Zafar qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Iqtisodiyot yo'nalishi, 3-bosqich talabasi
E-mail: iqtisod2005@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Yaponiyada yuzaga kelayotgan demografik inqiroz va uning iqtisodiyotga ta'siri o'rganiladi. Aholining keskin qarish jarayoni, tug'ilish darajasining pasayishi va mehnat resurslarining qisqarishi mamlakat iqtisodiy barqarorligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Tadqiqotda Yaponiyaning mehnat bozorida yuzaga kelgan muammolar, ijtimoiy ta'minot tizimidagi bosim va iste'mol bozorining qisqarishi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ushbu demografik vaziyatga qarshi qanday strategiyalar qo'llanilayotgani va ularning samarasi ham baholanadi.

Kalit so'zlar: demografik inqiroz, aholining qarishi, tug'ilish darajasi, mehnat bozori, mehnat resurslari tanqisligi, iste'mol bozori, ijtimoiy ta'minot tizimi, iqtisodiy barqarorlik, Yaponiya iqtisodiyoti, demografik strategiyalar.

Abstract: This article explores the demographic crisis in Japan and its impact on the national economy. The rapid aging of the population, declining birth rates, and shrinking labor resources pose significant risks to Japan's economic stability. The study analyzes challenges in the labor market, the increasing burden on the social security system, and the contraction of consumer demand. Furthermore, the paper evaluates the strategies and policy measures currently being implemented to address these demographic issues.

Key words: demographic crisis, population aging, birth rate, labor market, labor shortage, consumer market, social security system, economic stability, Japanese economy, demographic strategies.

Аннотация: В статье рассматривается демографический кризис в Японии и его влияние на экономику страны. Стремительное старение населения, снижение рождаемости и сокращение трудовых ресурсов создают серьезные риски для экономической стабильности Японии. В исследовании анализируются проблемы на рынке труда, давление на систему социального обеспечения и сокращение потребительского спроса. Также дана оценка стратегиям и мерам, предпринимаемым для решения демографических проблем.

Ключевые слова: демографический кризис, старение населения, уровень рождаемости, рынок труда, дефицит трудовых ресурсов, потребительский рынок, система социального обеспечения, экономическая стабильность, экономика Японии, демографические стратегии.

KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda Yaponiya dunyoning eng jadal qarayotgan davlatlaridan biriga aylangan. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil holatiga Yaponiyada 65 yosh va undan katta bo'lgan shaxslar mamlakat umumiy aholisining 29,1 foizini tashkil etgan bo'lib, bu — dunyodagi eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Shu bilan birga, tug'ilish darajasi 1,26 farzandga tushib, o'zining tarixiy minimumiga yetgan. Boshqacha aytganda, Yaponiyada har yili aholi soni kamayib bormoqda — 2023-yilda mamlakat aholisi 800 ming kishiga qisqargan. Bu esa nafaqat demografik barqarorlikka, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy dinamikasiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yosh ishchi kuchi qisqarib borayotgani sababli Yaponiyada mehnat resurslari tanqisligi kuchaymoqda. Bu esa ishlab chiqarish quvvatlariga, soliq tushumlariga va ijtimoiy ta'minot tizimining bosim ostida qolishiga olib kelmoqda. Xususan, pensiya hamda tibbiy xizmatlar xarajatlari muttasil ortib borayotgani sababli davlat budjeti muvozanatida muammolar yuzaga kelmoqda. Yaponiyadagi iste'mol bozorida ham pasayish kuzatilmoqda, chunki keksa aholining xarid qilish faolligi yoshlar bilan solishtirganda pastroq darajada.



Mazkur maqolada Yaponiyaning demografik inqirozi sabablari va oqibatlari chuqur tahlil qilinadi, shuningdek, hukumat tomonidan ko'rilayotgan choralar, ularning iqtisodiyotga ta'siri va uzoq muddatli strategik yo'nalishlar baholanadi. Yaponiyaning tajribasi boshqa mamlakatlar, ayniqsa aholisi qarib borayotgan davlatlar uchun ogohlantiruvchi dars bo'lishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yaponiyada demografik muammolar va ularning iqtisodiy oqibatlari bo'yicha xalqaro miqyosda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu sohada yetakchi hisoblangan iqtisodchi olimlardan biri A. Ogawa (2021) o'z izlanishlarida Yaponiya mehnat bozorida yuzaga kelgan mehnat resurslari tanqisligini iqtisodiy o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, ishchi kuchining qarishi va yoshlar sonining kamayishi natijasida ishlab chiqarish quvvatlari pasayib, texnologik rivojlanish ham sekinlashmoqda.

Bundan tashqari, N. Yoshikawa (2019) tomonidan olib borilgan demografik-iqtisodiy modellashirish tadqiqotlarida aholining qarishi pensiya tizimiga yukni orttirayotgani, davlat budjeti xarajatlarining asosiy qismini ijtimoiy ta'minot egallab borayotgani ko'rsatilgan. Shu bilan birga, Yaponiya hukumati tomonidan joriy etilgan "Ikkinchi demografik to'lqin" dasturi ham o'zining samaradorligi bilan baholanmoqda (Japan Cabinet Office, 2022). Ushbu siyosiy hujjatlarda migratsiyani rag'batlantirish, ayollar va keksalarning iqtisodiy faolligini oshirish, avtomatlashtirishni kengaytirish kabi chora-tadbirlar belgilangan.

Mahalliy tadqiqotchilar — masalan, O'zbekiston Milliy universiteti professori X. Mirzayev (2023) Yaponiyaning demografik siyosatini Markaziy Osiyo davlatlari uchun tajriba sifatida o'rganishni taklif etadi. Uning fikricha, bu tajriba, xususan mehnat bozorining texnologik moslashuvi va pensiya tizimidagi islohotlar orqali boshqa davlatlar uchun muhim model bo'lishi mumkin.

Yana bir muhim manba sifatida BMTning Aholi bo'yicha hisobotlari (UN DESA, 2023) qayd etiladi. Unda Yaponiya aholisi 2050-yilgacha 20 foizdan ortiq kamayishi prognoz qilinmoqda. Bu esa uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka xavf tug'dirishi mumkin.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Yaponiyada demografik muammo nafaqat ijtimoiy va demografik, balki iqtisodiy hamda texnologik o'zgarishlarning ham asosiy omillaridan biridir. Bu boradagi tadqiqotlar integratsion yondashuvni — ya'ni iqtisodiyot, jamiyat va texnologiya chorrahasidagi muammolarni kompleks hal qilish zarurligini ta'kidlamogda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuni ilmiy o'rganish, statistik tahlillar, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida turli xil adabiyotlar va maqolalar tahlilidan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yaponiyada kechayotgan demografik jarayonlar — xususan, aholining keskin qarishi, tug'ilish darajasining pasayishi va ishchi kuchining qisqarishi — nafaqat milliy miqyosda, balki global iqtisodiy dinamikada ham sezilarli iz qoldirmoqda. Mavjud statistik ma'lumotlar asosida shuni ko'rish mumkinki, Yaponiya iqtisodiyoti tobora ko'proq ijtimoiy ta'minot va pensiya xarajatlariga bog'lanib qolmoqda. Bu esa investitsiya, innovatsiya va raqobatbardoshlik salohiyatini cheklab qo'yimoqda.

Yaponiya hukumati tomonidan demografik inqirozni jilovlashga qaratilgan choralar — masalan, ayollar va pensiya yoshidagi kishilarning bandligini oshirish, tashqi mehnat migratsiyasiga ochiqlik siyosati va avtomatlashtirishga sarmoya kiritish — ayrim sohalarda ijobiy natijalar bergani kuzatilmoqda. Biroq bu chora-tadbirlar demografik jarayonlarning chuqur ildiz otgan strukturaviy muammolarini to'liq hal eta olmayotganini ham e'tirof etish zarur. Xususan, gender tengligidagi to'siqlar, yuqori yashash xarajatlari va bolalarni parvarishlash tizimining yetarlicha qo'llab-quvvatlanmasligi yosh oilalarning farzand ko'rish istagini susaytirmoqda.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, Yaponiyaning demografik inqirozga qarshi kurashi faqat iqtisodiy mexanizmlar bilan emas, balki madaniy, institutsional va psixologik yondashuvlar bilan birgalikda olib borilishi lozim. Aks holda, iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish uchun soliq yukining oshirilishi yoki davlat xarajatlarining kamaytirilishi o'z navbatida iste'mol bozorining yanada qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Yaponiyaning tajribasi boshqa davlatlar, ayniqsa, aholi qarish jarayoniga yuz tutayotgan Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ogohlantiruvchi model bo'lib xizmat qiladi. Bu tajriba demografik muammolarning vaqtida aniqlanishi, tizimli strategiyalar orqali hal qilinishi va bu jarayonda jamiyatning barcha qatlamlari faolligini ta'minlash zarurligini ko'rsatmoqda.

So'nggi o'n yillikda Yaponiya misolida demografik qisqarish jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. 2015-yilda 127,09 million bo'lgan aholi sonining 2025-yilgacha 122,90 millionga tushishi nafaqat oddiy statistik fakt, balki mamlakat iqtisodiyoti, mehnat bozori, ijtimoiy siyosati va budget xarajatlari uchun muhim strategik o'zgarishlar signalidir (1-jadval).



1-jadval. Yaponiya aholisi o'zgarish dinamikasi (2015–2025)

Yil	Aholi soni (million)	Yillik o'zgarish (%)
2015	127,09	-0,07%
2016	126,93	-0,13%
2017	126,76	-0,13%
2018	126,44	-0,25%
2019	126,17	-0,21%
2020	125,93	-0,19%
2021	125,50	-0,34%
2022	125,01	-0,39%
2023	124,42	-0,47%
2024	123,75	-0,54%
2025	122,90	-0,69%

Manba: Japan Statistics Bureau, UN DESA World Population Prospects 2024, World Bank Population Data

Birinchidan, demografik o'sishning salbiy tendensiyasi barqaror emas, balki yildan-yilga kuchayib bormoqda. 2015–yildagi $-0,07\%$ o'zgarish 2025–yilga kelib $-0,69\%$ ga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu holat Yaponiya jamiyatida deyarli har yili yuz minglab kishining tabiiy kamayishini bildiradi.

Demografik pasayish bilan bir qatorda, mamlakatda aholining qarish jarayoni ham jadallashmoqda. 65 yoshdan yuqori bo'lgan aholining ulushi 2015–yilda 26% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025–yilda bu ko'rsatkich 30% dan oshishi kutilmoqda. Ushbu jarayon mehnatga layoqatli aholining qisqarishiga olib kelmoqda va bu holat iqtisodiy o'sishni cheklovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda.

Iqtisodiy ko'rsatkichlarga nazar tashlansa, demografik siljishlarning yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, 2015–yilda YAIM hajmi 4,38 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023–yilga kelib u 4,23 trillion dollarga tushgan. Ushbu pasayish demografik omillar, ichki iste'molning qisqarishi, ishchi kuchi tanqisligi va texnologik yangilanishlar orqali yetarli darajada kompensatsiya qilinmaganligi natijasidir.

Shuningdek, inflyatsiya darajasi va ishsizlik ko'rsatkichlari ham befarq qolmagan. 2020–yilda pandemiya ta'siri ostida ishsizlik darajasi $2,8\%$ dan $3,0\%$ ga ko'tarilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda bu ko'rsatkich nisbatan barqarorlashgan. Inflyatsiya darajasi esa 2022–yilgacha past bo'lib, $0,1\text{--}0,8\%$ atrofida saqlanib kelgan. Biroq 2023–2024–yillarda global ta'minot zanjirlari muammolari va energiya narxlarining oshishi fonida inflyatsiya darajasi 3% atrofida yuqorilagan.

Shunday qilib, aholining qisqarishi, YAIMning pasayishi, ishsizlik va inflyatsiya ko'rsatkichlarining notekis dinamikasi Yaponiya iqtisodiyoti oldida dolzarb strukturaviy muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu holat yapon iqtisodiyotini innovatsion texnologiyalar, avtomatlashtirish, migratsiya siyosatini yumshatish hamda oilaviy siyosatni kuchaytirish orqali muvozanatga keltirish zaruratini yuzaga keltirmoqda (2-jadval).



2-jadval. Yaponiya aholisi o'zgarish dinamikasi (2015–2025)

Yil	Aholi (mln)	Aholi o'zgarishi (%)	YAIM (trln \$)	Ishsizlik (%)	Inflyatsiya (%)	Eksport (\$ mlrd)	Import (\$ mlrd)	Ta'sir izohi
2015	127,09	–0,07%	4,38	3,4	0,8	624	648	+ 878...
2016	126,93	–0,13%	4,36	3,1	0,3	645	627	Eksport ortgan. Ichki iste'mol sustlashmoqda.
2017	126,76	–0,13%	4,35	2,8	0,5	698	672	Savdo ijobiy. Aholi kamayishi sezilarli emas.
2018	126,44	–0,25%	4,32	2,5	1,0	738	748	Import kuchaygan, ichki ehtiyojlar ortmoqda.
2019	126,17	–0,21%	4,31	2,4	0,5	705	720	Ichki ishlab chiqarish past sur'atda.
2020	125,93	–0,19%	4,03	3,0	0,0	641	634	Pandemiya sabab eksport va import keskin tushgan.
2021	125,50	–0,34%	4,20	2,8	0,8	756	768	Tashqi savdo tiklangan. Aholi qisqarishda davom etmoqda.
2022	125,01	–0,39%	4,23	2,6	2,5	751	838	Import keskin oshgan – energiya va oziq-ovqat narxlari sabab.
2023	124,42	–0,47%	4,25	2,5	3,1	742	844	Savdo defitsiti chuqurlashmoqda.
2024	123,75	–0,54%	4,22	2,6	2,9	736	815	Ichki talab susaymoqda. Demografik bosim kuchli.
2025*	122,90	–0,69%	4,18	2,7	2,5	730	805	Prognoz: eksport zaif, import pasayadi. Savdo balansidagi bosim saqlanib qoladi.

Eslatma: 2023–2025-yillar uchun ma'lumotlar prognoz asosida olingan.

Manba: IMF, WTO, BOJ (Bank of Japan), MOF Japan.

So'nggi o'n yillikda Yaponiya iqtisodiyoti o'ziga xos demografik sharoitlar fonida shakllanib, aholining izchil qisqarishi mamlakatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir o'tkazdi. 2015-yilda 127,1 millionni tashkil etgan aholi soni 2025-yilga kelib 122,9 millionga kamayishi prognoz qilinmoqda. Bunday demografik pasayish Yaponiya uchun endemik tus olgan muammo — aholining keksayishi va tug'ilish darajasining pastligi bilan izohlanadi. Bu esa iqtisodiy o'sish, mehnat bozori, inflyatsiya, tashqi savdo va umumiy ijtimoiy barqarorlikda turli o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda.

Demografik qisqarish natijasida mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM) bo'yicha real o'sish sur'atlari past darajada saqlanib qolmoqda. 2015-yilda 4,38 trillion AQSh dollari bo'lgan YAIM hajmi 2025-yilda 4,43 trillion dollarga yetishi kutilmoqda, ammo bu nominal o'sish hisoblanadi. Aholi soniga nisbatan YAIM hajmi aholi jon boshiga hisoblaganda nisbatan ortsa-da, bu iqtisodiyotda haqiqiy kengayish emas, balki tarkibiy siqilish natijasi sifatida talqin etiladi. Aholi sonining qisqarishi, ayniqsa, ichki iste'mol segmentida talabning zaiflashuvi orqali iqtisodiy faollikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shunga qaramay, ishsizlik darajasida mutlaq pasayish kuzatildi — 2015-yildagi 3,4 foizdan 2022–2025-yillarda 2,6–2,7 foizgacha tushdi. Bu statistik pasayish bir qarashda ijobiy ko'rinishi mumkin, biroq aslida bu mehnat resurslarining keskin qisqarishi, ishchi kuchiga bo'lgan talabning ortishi va mehnat migratsiyasiga qisman ochiqlik sababli yuzaga kelgan. Bu holat Yaponiya mehnat bozorida «keksaygan bandlik» sindromini keltirib chiqargan: yosh ishchi kuchi kamayib, 65 yoshdan oshganlar soni mehnat jarayonida nisbatan ko'proq ishtirok eta boshlagan.



Inflyatsiya ko'rsatkichlari ham demografik muammolar ta'sirida o'zgaruvchan tus oldi. 2015–2020-yillarda Yaponiya iqtisodiyoti deflyatsiya xavfi ostida, past inflyatsiya bosimi bilan yashagan bo'lsa, pandemiya so'nggi global energiya va ta'minot zanjiri inqirozlari 2022–2023-yillarda inflyatsiyani 2,5–3,1 foizgacha oshirdi. Demografik qisqarish iste'mol hajmini qisqartirgani bois, talab tomonidan inflyatsiyaga bosim sust bo'ldi, biroq import narxlari va tashqi omillar asosiy haydovchi kuch bo'lib qoldi.

Tashqi savdo ko'rsatkichlarida esa demografik omillar bilan birga global iqtisodiy sharoitlar ham hal qiluvchi rol o'ynadi. 2015–2018-yillarda Yaponiya eksport hajmi barqaror o'sishni namoyon qilgan bo'lsa, 2019–2020-yillarda global pandemiya va logistika muammolari uni pasaytirdi. Shu davrda import hajmi energiya resurslariga yuqori bog'liqlik sabab jadal o'sdi, bu esa salbiy savdo balansiga olib keldi. 2025-yilga kelib eksport hajmi 780 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, import esa 830 milliard dollarga yetib, savdo balansidagi kamomad saqlanib qoladi. Ichki ishlab chiqarish kuchining pasayishi, ayniqsa ishlab chiqaruvchi va iste'molchi sonining kamayishi eksport salohiyatini cheklamoqda.

Yuqoridagi barcha makroiqtisodiy o'zgarishlar Yaponiya demografik strukturasi bilan uzviy bog'liq. Tug'ilish darajasining pastligi, qarilik yoshidagi aholi ulushining ortishi, migratsiya oqimlarining cheklangani, texnologik modernizatsiyaning sekin kechishi — bularning barchasi Yaponiya iqtisodiyotida stagnatsiya xavfini kuchaytirgan. Mamlakat uchun demografik muvozanatni tiklash, migratsion siyosatni liberallashtirish, raqamli transformatsiyani tezlashtirish va ishchi kuchi samaradorligini oshirish eng dolzarb iqtisodiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yaponiya — texnologik taraqqiyotda yetakchi, zamonaviy sanoat va xizmatlar infratuzilmasi rivojlangan davlat bo'lishiga qaramasdan, so'nggi yillarda chuqur demografik inqiroz jarayoniga yuz tutmoqda. 2015–2025-yillar davrida mamlakat aholisi yil sayin kamayib, 127 milliondan 122,9 milliongacha tushishi prognoz qilinmoqda. Bu holat — dunyo miqyosida eng tez keksayib borayotgan millatlardan biri uchun og'ir va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy tahdid sanaladi.

Demografik muammoning ildizlari chuqur ildiz otgan: tug'ilish darajasining pastligi, umr ko'rish davomiyligining yuqoriligi, yoshlar orasida nikoh va farzandli bo'lishga nisbatan sust munosabat, shuningdek, migratsiyaga nisbatan yopiqlik siyosati ushbu inqirozni chuqurlashtirmoqda. Bu demografik o'zgarishlar mamlakat iqtisodiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Avvalo, ishchi kuchi tanqisligi muammosi jiddiy tus olmoqda. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholining kamayishi ishlab chiqarish quvvatining pasayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, og'ir sanoat, qishloq xo'jaligi hamda parvarish xizmatlari sohalarida malakali ishchi kuchiga ehtiyoj keskin ortmoqda. 2023-yil holatiga ko'ra, ishchi kuchi bozorida bo'sh ish o'rinlari soni mavjud talabdan yuqori bo'lgan. Bunday muvozanatsizlik makroiqtisodiy darajada ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, ichki iste'mol hajmi ham keskin qisqarib bormoqda. Aholi tarkibida yoshi katta qatlam ulushining ortishi ularning umumiy iste'mol darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Bu esa chakana savdo va xizmatlar sektoriga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, davlat budjeti xarajatlarning katta qismi pensiya, sog'liqni saqlash va ijtimoiy parvarish xizmatlariga yo'naltirilmoqda. Masalan, 2022-yilda Yaponiya sog'liqni saqlash sohasiga yalpi ichki mahsulotning (YAIM) 10 foizidan ortig'ini ajratgan. Bunday fiskal bosim boshqa sohalariga ajratiladigan moliyaviy resurslarni cheklab qo'ymoqda.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ham demografik bosimni aks ettirmoqda. 2015–2025-yillar oralig'ida YAIM o'sish sur'atining sekinlashuvi, inflyatsiyaning past darajada qolishi va ishsizlik darajasining nisbatan barqaror saqlanishi yuzaga kelgan. Biroq bu statistik barqarorlik fonida real iste'mol talabining pasaygani kuzatilmoqda. Shuningdek, eksport-import ko'rsatkichlari ham demografik o'zgarishlardan ta'sirlangan. Eksport salohiyati, ayniqsa texnik xizmatlar sohasida, malakali kadrlarga ehtiyoj sabab pasaygan. Import esa ichki ishlab chiqarishning qisqarishini qoplash maqsadida ma'lum darajada oshgan.

Ushbu salbiy tendensiyalarni jilovlash maqsadida Yaponiya hukumati keng ko'lamli islohotlarni amalga oshira boshladi. Jumladan, xorijiy ishchi kuchini jalb etish uchun migratsion siyosat yumshatildi, ayollar va pensiya yoshiga yaqin aholini mehnat bozoriga faol jalb etish mexanizmlari joriy etildi. Shuningdek, tug'ilish darajasini oshirish maqsadida yosh oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchi dasturlar, subsidiyalar, bepul maktabgacha ta'lim muassasalari va ota-onalik ta'limi tizimlari kengaytirildi. Raqamlashtirish va robototexnika yechimlarining iqtisodiyotga keng tatbiq etilishi inson mehnatiga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Yaponiya nafaqat demografik inqirozning og'ir bosqichini boshdan kechirmoqda, balki ushbu murakkab muammolarga innovatsion, institutsional va ijtimoiy mexanizmlar orqali strategik javob qaytarmoqda. Mazkur holat Yaponiya iqtisodiy modeli uchun sinov maydoni vazifasini bajarib, boshqa keksayib borayotgan mamlakatlar uchun muhim ogohlantiruvchi misol bo'lib xizmat qilmoqda (3-jadval).



3-jadval. Yaponiyada demografik muammolar va innovatsion yechimlar jadvali¹

№	Demografik muammo yoki iqtisodiy oqibat	Yuzaga kelayotgan muammo	Innovatsion taklif / Islohot yo'nalishi
1	Ishchi kuchi kamaymoqda	Ishlab chiqarish quvvatining pasayishi	Robototexnika, AI va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish
2	Qarigan aholi soni ortmoqda	Ijtimoiy ta'minot xarajatlari oshmoqda	Keksalar uchun qisqa muddatli ish shakllari, "Second Career" modeli
3	Aholi soni kamaymoqda	Iste'mol talabi pasaymoqda	Yangi demografik guruhlar uchun kreativ iqtisodiy faoliyat
4	Uy-joylar bo'shab qolmoqda	Ko'chmas mulk bozori tanazzulga uchramoqda	Bo'sh turgan uylarni ijaraga berish, subsidiyalangan dasturlar
5	Yoshlar soni kam	Startaplar soni kamaymoqda	Innovatsion fondlar orqali yoshlarga moliyaviy ko'mak
6	Tashqi bozorga bog'liqlik kuchaymoqda	Ichki bozor qisqarmoqda	Mahalliy raqamli xizmatlarni rivojlantirish, IT-eksportni kengaytirish
7	Tug'ilish darajasi past	Aholi o'sishi sust	Bolalarga grantlar, soliq imtiyozlari, arzon bog'chalar
8	Immigratsiya cheklangan	Mehnat bozorida bo'shliqlar to'ldirilmayapti	Yuqori malakali immigrantlar uchun vizani soddalashtirish
9	Innovatsion salohiyat pasaymoqda	Texnologik taraqqiyot sekinlashmoqda	Universitetlarda inkubatorlar, yoshlar innovatsion markazlarini yaratish
10	Qariganlar parvarishiga talab ortmoqda	Tibbiy xizmatlar bosimi oshmoqda	Aqlli qurilmalar va robotlashtirilgan parvarish tizimlarini joriy etish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Strategik islohotlar agentligi. (2024). Yaponiyaning demografik siyosati va mehnat bozorida o'zgarishlar. Toshkent: Strategik tadqiqotlar nashriyoti.
2. Karimov, I. (2019). Global demografik muammolar va ularning iqtisodiy oqibatlari. Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim.
3. Ministry of Internal Affairs and Communications (Japan). (2024). Statistical Handbook of Japan 2024. Tokyo: Government of Japan Statistics Bureau. Retrieved from: <https://www.stat.go.jp>
4. OECD. (2023). Ageing and Employment Policies: Japan 2023 – Working Better with Age. Paris: OECD Publishing. Retrieved from: <https://www.oecd.org/japan/ageing>
5. The World Bank. (2024). Japan: Economic Indicators & Outlook. Retrieved from: <https://data.worldbank.org/country/japan>
6. International Monetary Fund (IMF). (2023). Japan Country Report 2023: Structural Challenges and Reform Pathways. Washington, D.C.: IMF. Retrieved from: <https://www.imf.org>
7. Nomura Research Institute. (2022). Demographic Changes in Japan and Their Impact on the Economy. Tokyo: NRI Research.
8. Ogawa, N., & Matsukura, R. (2020). Declining fertility and the rise of elderly population in Japan: Economic challenges and policy responses. Asian Population Studies, 16(1), 1–18.
9. United Nations Population Division. (2023). World Population Prospects 2023: Japan Profile. Retrieved from: <https://population.un.org/wpp>
10. Ministry of Economy, Trade and Industry (METI, Japan). (2023). White Paper on the Japanese Economy. Tokyo: METI Publications.

¹ Muallif ishlanmasi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>